

**BADIIY TARJIMANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*S.T.Akobirova,*

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xorijiy tillar kafedrasida  
professori v.b., f.f.f.d (PhD)*

*E-mail: akobirovasarvara@gmail.com*

*Telephone: +998908055822*

**Annotation.** This article discusses the fact that literary communication is one of the most necessary factors for the development of any literature, how laborious the art of translation is in translating samples of Uzbek literature into English, and how poetic works differ from prose works in the same way and to the same extent. The existence of primary rules for a translator in translation, translation is a type of literary art, and translation is a science. In this sense, if a translator, as an artist of words, knows another language perfectly, but does not know his own language well, the work will be very strange and dull. The work of a translator and the relevance of literary translation today are discussed.

**Keywords:** literary communication, translation, poetic works, rules for a translator, literary art, language, literary translation.

**Аннотация.** В данной статье обсуждается тот факт, что литературная коммуникация является одним из самых необходимых факторов развития любой литературы, насколько сложным является искусство перевода образцов узбекской литературы на английский язык и чем поэзия отличается от прозы так же, как поэтический перевод отличается от прозаического перевода. В переводе существуют основные правила для переводчика: перевод - это вид литературного искусства, перевод - это наука. В этом смысле, если переводчик, как художник слова, в совершенстве владеет другим языком, но плохо знает свой собственный, то работа будет очень странной и скучной. Обсуждается работа переводчика и актуальность художественного перевода в наши дни.

**Ключевые слова:** литературная коммуникация, перевод, поэтические произведения, правила для переводчика, литературное искусство, язык, художественный перевод.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada adabiy aloqa har qanday adabiyotning rivoji uchun nihoyatda zarur omillardan biri ekanligi, o‘zbek adabiyoti namunalarining ingliz tiliga tarjima qilinishiga tarjima san’atining naqadar mashaqqatli ish ekani va she’riy asar nasriy asardan nima bilan farqlansa, nazm tarjimasi ham nasriy tarjimadan xuddi shunday va shunchalik farqlanishi haqida fikr yuritilgan. Tarjimachilikda tarjimon uchun birlamchi qoidalar mavjudligi, tarjima - adabiy san’at turi, tarjima ilm Shu ma’noda, tarjimon so‘z san’atkori sifatida o‘zga tilni mukammal bilgani holda, o‘z

tilini yaxshi bilmasa, asar juda g'arib, nursiz bo'ladi. tarjimon faoliyati va adabiy tarjimaning hozirgi kundagi dolzarbligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar: adabiy muloqot, tarjima, she'riy asarlar, tarjimon qoidalari, adabiy san'at, til, badiiy tarjima**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat biz uchun ustuvor masaladir. Albatta, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun, avvalo, uning mustahkam iqtisodiy, moddiy-texnik asoslarini yaratish kerak" [1].

Davlat rahbari: "Biz O'zbekistonda "Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik" degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz. "Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidlash lozim" [2].

O'zbek adabiyoti namunalarining ingliz tiliga tarjima qilinishiga nazar tashlash mobaynida shu narsaga ishonch hosil qilish mumkinki, ham mumtoz, ham zamonaviy ma'noda, o'zbek adabiyoti purmazmun, zalvorli asarlarga boydir. Uni keng targ'ib etish, nafaqat ingliz, balki jahonning boshqa tillariga ham tarjima qilish hamisha dolzarb muammolardan bo'lib qolaveradi.

Adabiy aloqa har qanday adabiyotning rivoji uchun nihoyatda zarur omillardan. O'zbekistonda mustaqillik davrida adabiy aloqa va tarjima masalalariga davlat miqyosida e'tibor berilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqdaki, buni hech mubolag'asiz adabiy aloqalarning yangi bosqichi deb atasak yanglishmaymiz.

Tarjima nima? Ta'bir joiz bo'lsa, matematika tili bilan aytganda, bu – yozuvchi yoki shoir tomonidan tarjimonga berilgan masala. Tarjimon boshqa milliy, tarixiy, adabiy muhitda, o'zga til materialini asosida ana shu masalani yechishi kerak. Masalaning shartlari ham, yechimi ham berilgan. Uning shartlarini o'zgartirishga tarjimonning haddi sig'maydi. (Adabiyotda umuman olganda shartlari asosli ravishda o'zgartirib yechilgan masala *originallik* kasb etadi.) Aniq fan bo'lmish matematikada ham o'ziga xos *ijodiylik* bor: hatto qat'iy shartlar asosida ifodalangan masalani ham bir nechta (ba'zan o'nlab) yo'llar, usullar, variantlarda yechish mumkin. Xuddi shuningdek, ayni bir avtorning muayyan asarini ma'lum bir tilga bir necha martalab tarjima qilishga yo'l qo'yiladi. Chunki bir tarjimaning o'zida asl nusxaning bir yo'la yuz ma'nosini kashf qilib bo'lmaydi – yuzinchi ma'no "dilda" bo'ladi.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim Suvon Melining 2007-yilda aytgan fikrini yodga olaylik [3]: "Hozirgi zamon chet el adabiyoti haqida gap ketganda, aytish joizki, nimani

**"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

tarjima qilish va nimani targ'ib qilishni ham bilish kerak, shekilli. G'arbda bestseller bo'lgan asar bizda ham shunday bo'ladi, deb o'ylash xato. Bundan tashqari, bestseller va chinakam badiiy asar sifat-saviya jihatidan boshqa-boshqa hodisa ekani ham bor gap. Biri ommaviy, ikkinchisi – badiiy hodisa! Ommaviy hodisa badiiy, badiiy hodisa ommaviy bo'lmasligi mumkin. Aytaylik, Paulo Koeloning "Alximik"ka o'xshash asarlarining shov-shuvli maqtoviga jo'r bo'lish tanqidchilik obro'yiga putur yetkazadi, kitobxon didini chalg'itadi. Ustiga ustak, bu adabiy kuchlarning isrof bo'lishiga olib kelmaydimi? Bu o'rinda men "Alximik"ning bir yo'la uch tarjimon tomonidan o'zbekchaga ag'darilganini nazarda tutayapman. Meningcha, "Alximik"ning lo'nda bahosi — adabiy kompilyatsiya". (*To'rtinchi tarjima ham nashr etilibdi, tarjimon Gulchehra Azimova. 20.02.2020.*)

She'riy asar nasriy asardan nima bilan farqlansa, nazm tarjimasida ham nasriy tarjimadan xuddi shunday va shunchalik farqlanadi. She'riy asar, janr taqozosiga ko'ra, shaklan qat'iy chegaralangan, uning tarjimasida esa ana shu chegaralanganlik yanada ortadi. Chunki ma'lum sistema, vazn, ohangdorlik nuqtayi nazaridan muayyan bir o'lchovga solingan badiiy asarni boshqa tilda qayta yaratish juda murakkab ijodiy jarayondirki, bu muammoni shoirlik iqtidoridan tashqari, ikki tilni mukammal egallagan mohir tarjimon-adibgina hal qila oladi (*G'aybulloh as-Salom*).

She'riy tarjima dialektikasiga xos umumiy, tipik xususiyat shundaki, asl nusxaning faqat lug'aviy mazmunini to'kis berishga rujuv qilish uning badiiy, nazmiy tabiatiga lat yetkazadi, yoki aksincha, "she'r asosida she'r" yaratishga zo'r berish tarjimonni – avtordan, tarjimoni – originaldan uzoqlashtirib yuboradi [4] (*G'aybulloh as-Salom*).

Badiiy tarjimoni adabiyotshunoslik muammolaridan ajratib amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Badiiy asar tarjimonining vazifasi faqat asar mazmunini, uning tilini mutanosib qayta yaratishdan iborat bo'lmay, balki muallifning individual uslubi, uning qaysi adabiy oqimga mansub ekanligini ham aks ettira olishdir. Buning uchun esa u faqat o'z milliy adabiyotshunosligi bilan chegaralanmay, asliyat tili adabiyotshunosligi taraqqiyotini ham e'tiborga olishi kerak. Tarjimachilikda tarjimon uchun birlamchi qoidalar mavjud. Tarjima — adabiy san'at turi, tarjima ilm ham. Shu ma'noda, tarjimon so'z san'atkorining sifatida o'zga tilni mukammal bilgani holda, o'z tilini yaxshi bilmasa, asar juda g'arib, nursiz bo'ladi.

Har bir tarjima asari — o'z davrining mahsulidir. Aytaylik, yuz yil oldin muayyan bir badiiy asarning o'zbek tiliga qilingan tarjimasida bilan uning keyingi davrda qilingan tarjimalarini bir-biri bilan qiyoslansa, bundan turli davrlarda yashagan tarjimonlarning asar muallifini tushunish darajasi, ularning mahorati o'rtasida ko'zga yaqqol tashlanadigan tafovutnigina emas, balki adabiy tilning turli davrlarda ishlanish darajasini ham ko'rish mumkin [5]. Shu o'rinda

Gʻaybulla Salomovning fikrini yoddan chiqazmaslik zarur [6]: “Har qanday tarjimoni, xususan, badiiy tarjimalarni tadqiq qilishning eng toʻgʻri, qulay va samarali nazariy zamini stilistika, ikki til vositalari, ikki adabiy-tarixiy tajribani qiyosiy uslubiyot va tipologiya asosida tadqiq etishdir. Badiiy tarjimaga xalqlar oʻrtasidagi adabiy aloqalarning bogʻlovchi halqasi sifatida qaragan holda, uni qiyosiy-uslubiy-tipologik asnoda oʻrganish biryozlamalikdan qochishga, badiiy tarjimaning adabiy estetik va til masalalarini qoʻshib, yaxlit va muntazam tahlil qilishga imkon tugʻdiradi”.

Tarjimon ishi masalasida shaxsiy fikrlarim: Tarjimon oʻzligidan kechib, oʻz hayotini va faoliyatini oʻzgani ishini mukammal qilishga baxshida etishga qodir boʻlgan shaxs. Masalan, har qanday adibning 10 ming kishi oʻqimaydigan asarini millionlab, kerak boʻlsa, milliardlab oʻquvchilar eʼtiboriga yetkaza oladigan shaxsiyat. Butun bashariyatni, turli tilli millat va elatlardan iborat milliardlab xalqlarni biritirib oʻrganish, ibrat olishini, muloqot qilishini, tushunishi, anglashi, oʻrganishi, saboq olishi, kerak boʻlsa, ibrat olish imkoniyatlarini begʻaraz tarzda yaratib, bashariyatga bemalol tuhfa qila olish darajasidagi muakammal maʼnaviyatli yetuk inson. Shuning uchun ham minglab adiblar bor-oʻ, ammo tarjimon yagona, sanoqligina xolos.

Tarjimonlar oʻz faoliyatlari bilan mutsaqillikning birinchi kunidan boshlab islohotlarga xizmat qilib kelmoqdalar, Yetakchilarimizni va ekspertlarimizni jahon tajribasi bilan tanishtirish hamda Oʻzbekistonni, xalqimiz qadriyatlarini, milliy adabiyotimiz va maʼnaviyatimiz ustunligini dunyoga tanitishga ular oʻz hayoti va sogʻligʻini tikib kelmoqdalar. Ayni paytda, ilm bilan ham shugʻullanib kelmoqdalar, ayniqsa. tarjimonlik va filologiya masalalari bilan, shu jumladan, davlat tilini rivojlantirish va boyitish sohasiga ham tarjimonlar oʻz hissalarini qoʻshib kelmoqdalar. Shuning uchun ham tarjimonlik kasbi BMT va uning YUNESKO tashkilotida oʻta noyob kasb sifatida roʻyxatga olingan.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Maʼnaviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak // “Xalq soʻzi”, 2023-yil 23-dekabr, № 274 (8617).

2. Shavkat Mirziyoyev. “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik // “Xalq soʻzi”, 2018, 7-avgust.

3. Tarjima millatni jahonga tanitadi (**davra suhbatini M.Saʼdiy va A.Otaboyev tayyorladi**) // **”Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati”, 2007-yil 13-soni.**

4. Gʻaybulla Salomov. Tarjima tashvishlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983. 78- bet.

5. Gʻaybulla Salomov. Tarjima tashvishlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983. –192 b.

6. Gʻaybulla Salomov. Tarjima tashvishlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983. 28- bet.